**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI**
**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i**
**________ A.Abdunazarov**
**2024- yil “29” 06**

# PEDAGOGIK FIKRLAR TARAQQIYOTI

## O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 100000 – Ta’lim |
| Ta’lim sohasi: | 110000 – Ta’lim |
| Magistratura mutaxassisligi: | 70110101 – Pedagogika nazariyasi va tarixi |

**Toshkent – 2024**

<table>
<tr><td colspan="2">Fan/modul kodi<br>PFT205 (Magistratura)</td><td>O‘quv yili<br>2024-2025</td><td>Semestr<br>4</td><td colspan="2">ECTS-Kreditlar<br>5</td></tr>
<tr><td colspan="2">Fan/modul turi<br>Majburiy</td><td colspan="2">Ta’lim tili<br>O‘zbek</td><td colspan="2">Haftadagi dars soatlari<br>4</td></tr>
<tr><td rowspan="2">1.</td><td colspan="2">Fanning nomi</td><td>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</td><td>Mustaqil ta’lim (soat)</td><td>Jami yuklama (soat)</td></tr>
<tr><td colspan="2">Pedagogik fikrlar taraqqiyoti</td><td>60</td><td>90</td><td>150</td></tr>
</table>

**2.**

**I. Fanninig mazmuni.**

**Fanning maqsadi** – magistrantlarning tarixiy-pedagogik dunyoqara-shini shakllantirish va jahon va milliy ta’limni rivojlantirishga xissa qo‘shgan etakchi pedagogik g‘oyalar va konsepsiyalar tapixini o‘rganish asosida ijodiy pedagogik fikrlashini rivojlantirish.

**Fanning oldiga qo‘ygan vazifalari:**

- magistrlarni asosiy ilmiy-pedagogik yo‘nalishlar va konsepsiyalarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi tarixi bilan tanishtirishdan, ularni turli davrlar va xalqlarning atoqli pedagog-olimlarining ta’lim va tarbiya nazariyasi va amaliyoti sohasidagi yutuqlari bilan tanishtirishdan; jamiyat hayotida, shaxsning aniq tari-xiy rivojlanishi jarayonida ta’limning o‘rni to‘g‘risida magistrlarning barqaror qarashlarini shakllantirishdan;
- turli xil tarixiy va peda-gogik faktlar, konsepsiyalarning progressivligi, o‘ziga xosligi nuqtai nazaridan magistrlarning tahlil qilish, taqqoslash, qiyoslash qobiliyat-larini rivojlantirishdan va pedagogik fikrlar tarixidagi yetakchi tendensiyalarni amaliyotda foydalanishga tayyorlashdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari).**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

1-mavzu. **Pedagogik fikrlarning ilk manbalari. O‘rta asrlardagi pedagogik fikrlar (VII-XIV asrlar).**

Pedagogik fikrlarning paydo bo‘lishi. Eng qadimgi davrlardan VII asrgacha O‘rta Osiyoda tarbiya haqidagi qarashlar. Eng qadimgi yozma manba-larda ta’lim-tarbiya masalalarining yoritilishi. Xalq pedagogikasi.

O‘rta Osiyoda islom dinining tarqalishi va uning ta’lim-tarbiyaga ta’siri. Qur’on va hadislar axloqiy-falsafiy ta’limotlar manbai sifatida. Sharq Uyg‘onish davrida pedagogik fikrlarning rivojllanishi.

2-mavzu. **XVIII –XIX asrlardagi Markaziy Osiyoda pedagogik fikrlar taraqqiyoti.**

Munis Xorazmiyning ma’rifiy-didaktik qarashlari. So‘fi Ollayor-ning ta’limiy-axloqiy qarashlari. Jahon Otin Uvaysining pedagogik qarashlari. Muhammad Sodiq Qoshg‘ariyning ma’rifiy-axloqiy qarash-lari.

Baxshi-shoirlar, oqin-jirovlar ijodida ta’lim-tarbiya masalalari.

3-mavzu. **XIX-XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasidagi pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Pedagogik fikrlarning sho‘ro davridagi rivoji.**

Turkiston o‘lkasida pedagogik fikrlar taraqqiyoti. Jadid ma’rifat-parvarlarining pedagogik qarashlari.

Pedagogika fanining sho‘ro davridagi rivoji. Abdulla Avloniyning pedagogik qarashlari. S.R.Rajabovning ijtimoiy-pedagogik ta’limoti.

4-mavzu. **Mustaqil O‘zbektonda pedagogik fiklarning rivojla-nishi.**

Mustaqil O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlari. Yuksak ma’naviyatli shaxsni shakllantirishga doir konseptual fikrlar.

5-mavzu. **Jahonda eng qadimgi davrlarda pedagogik g‘oyalar.**

Qadimgi Sharqda tarbiya xaqida fikrlar. Qadimgi Gresiya va Rimda antik pedagogika. Sharqiy slavyanlarning tarbiya haqidagi qarashlari.

6-mavzu. **O‘rta asrlarda jahon pedagogik fiklar taraqqiyoti.**

Vizantiyada pedagogik fikrlar. Hindistonda tarbiya va ta’lim haqidagi qarashlar. Xitoyda tarbiya va ta’lim haqidagi qarashlar. Yevropada tarbiya va ta’lim haqidagi qarashlar. Uyg‘onish davrida Yevropada pedago-gik g‘oyalar.

7-mavzu. **Yangi davrda va Maorif davrida Yevropada pedagogik fikrlarning rivojlanishi.**

Yan Amos Komenskiy – ilmiy pedagogikaning asoschisi. D.Lokkning pedagogik konsepsiyasi. Fransuz ma’rifatparvarlarining shaxsni shakl-lantirishda tarbiyaning o‘rni va roli muammosi haqidagi qarashlari.

8-mavzu. **XIX asrda G‘arbiy Yevropada pedagogik fikrlarning rivojlanishi.**

XIX asrning boshida G‘arb falsafasida pedagogik g‘oyalar. I.G.Pestalossining pedagogik g‘oyalari. A.Distervegning pedagogik g‘oyalari.

9-mavzu. **XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida reformatorlik pedagogikaning konsepsiyalari va goyalari.**

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida jahon pedagogikasida asosiy pedagogik oqimlar. Pedagogik traditsionalizm. Reformatorlik pedagogika.

10-mavzu. **XXI asr pedagogikasi.**

XXI asr jahon ta’lim tizimidagi global tendensiyalar. Innovatsion pedagogika.

**III. Amaliy mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar.**

Amaliy mashg‘ulotlarida magistrlarda pedagogik fikrlar taraqqiyo-tigaga doir bilim, ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi.

Amaliy mashg‘ulotlarining taxminiy tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Eng qadimgi yozma yodgorliklarda ta’lim-tarbiya masalalari.
2. Hadis ilmining tarviyaviy ahamiyati.
3. Abu Nasr Forobiyning pedagogik g‘oyalari.
4. Abu Ali ibn Sinoning pedagogik g‘oyalari.
5. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy-pedagogik qarashlari.
6. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit-turk” asarida ta’lim-tarbiya masalalari.

| | | |
|---|---|---|
| | | 7. Yusuf Xos Xojibning “Qutadg‘u bilik” asarida ta’lim-tarbiya masalalari.<br>8. Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq” asarida didaktik qarashlar<br>9. Mirzo Ulug‘bekning pedagogik g‘oyalari.<br>10. Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari.<br>11. Zahiriddin Muhammad Boburning pedagogik fikrlari.<br>12. Jaloliddin Davoniyning axloqiy qarashlari.<br>13. Jadid ma’rifatparvarlarining pedagogik qarashlari.<br>14. Mustaqillik yillarida pedagogik fikrlar rivojining asosiy yo‘nalishlari<br>15. Qadimgi Sharqda tarbiya haqida fikrlar.<br>16. Yan Amos Komenskiyning pedagogik g‘oyalari.<br>17. Fransuz ma’rifatparvarlarining shaxsni shakllantirishda tarbiyaning o‘rni va roli muammosi haqidagi qarashlari.<br>18. I.G. Pestalossining pedagogik g‘oyalari.<br>19. A.Distervegning pedagogik g‘oyalari.<br>20. XXI asr pedagogikasi.<br><br>**IV. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar.**<br>Mustaqil ta’lim mazmuni ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar mavzulari assida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta’lim ko‘proq ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarida o‘rganilmagan masalalarni o‘z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta’lim asosida o‘qib-o‘rganilgan masalalar fan bo‘yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o‘z aksini topadi.<br>Mustaqil ta’limni tayyorlashda mazkur fanning xususiyatlarini hi-sobga olgan holda quyidagi **shakllardan foydalanish tavsiya etiladi**:<br>- darslik va o‘quv qo‘llanmalar boyicha mavzularni konspektlashtirish;<br>- adabiyotlar asosida referat yozish;<br>- kitob va maqollalarga annotatsiya yozish;<br>- Internet tarmog‘idan azborotlar izlash va tahlil etish.<br>Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan **mavzular**:<br>1. “Avesto”da ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar.<br>2. “O‘rxun-Yenisey yozma yodgorliklarida” ijtimoiy-pedagogik qarashlar.<br>3. Xalq pedagogikasi bilan ilmiy pedagogika tamoyillarining o‘zaro aloqasi.<br>4. Xadislarning tarbiyaviy imkoniyatlari.<br>5. Sharq Uyg‘onish davri qomusiy olimlarining didaktik g‘oyalari.<br>6. Sharq Uyg‘onish davri qomusiy olimlarining ma’naviy-ahloqiy tarbiya haqidagi qarashlari.<br>7. Sharq Uyg‘onish davri ma’rifatparvarlik yo‘nalishidagi asarlarda komil inson g‘oyasi.<br>8. Alisher Navoiyning komil inson konsepsiyasi.<br>9. Baxshi-shoirlar, oqin-jirovlar ijodida ta’lim-tarbiya masalalari.<br>10. Jadid ma’rifatparvarlarining darsliklar yaratish konsepsiyasi.<br>11. Jadid ma’rifatparvarlarining ma’naviy-ahloqiy qarashlari.<br>12. Siddiq Rajabovning pedagogik fikrlar taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi.<br>13. Hamkorlik pedagogikasi g‘oyalari rivoji.<br>14. Qadimgi Sharqdagi pedagogik asarlarda barkamol inson masala-lari. |

| | |
|---|---|
| | 15. Antik davr faylasuflarining pedagogik qarashlarida barkamol inson g‘oyasi.<br>16. Uyg‘onish davrida Yevropada pedagogik fikrlar taraqqiyoti.<br>17. XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi traditsionalist-peda-goglarning pedagogik qarashlari.<br>18. XIX asrning oxiri – XX asr boshlaridagi reformator-pedagoglar-ning pedagogik qarashlari.<br>19. Jahon ta’lim modellari. |
| **3.** | **V. Fanni o‘qitishning natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar).**<br>Fanni o‘zlashirish natijasida magistrant quyidagi **kompetensiyalarga e**ga bo‘ladi:<br>- ilk pedagogik manbalarni, pedagogik fikrlarning asosiy yo‘nalishlarini pedagogik va ta’limotlar mazmunini o‘zlashtirish;<br>- pedagogik fikrlar taraqqiyotining milliy va umumbashariy xususiyatlarini, pedagogik g‘oyalar integratsiyasining shaxs va jamiyat rivojiga ta’sirini, jahon ta’lim muhitining o‘ziga xosliklarini tavsiflash;<br>- amaliy vazifalarning yechimlarni hal qiladigan zamonaviy ilmiy yutuqlarni tanqidiy tahlil qilish va baholash qobiliyatini egallash;<br>- pedagogik manbalardan ilmiy izlanishlar jarayonida foydalanish, pedagogik ta’limotlarni zamonaviy g‘oyalar bilan qiyosiy tahlil etish, qo‘lyozma, bosma manbalar va arxiv manbalar bilan ishlash madaniyatini egallash. |
| **4.** | **VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• interfaol ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish texnologiyasi;<br>• modulli ta’lim texnologiyasi;<br>• muammoli ta’lim texnologiyasi;<br>• kooperativ ta’lim texnologiyasi;<br>• refleksiv ta’lim texnologiyasi;<br>• chizma-tasviriy modellar (mantiqiy graf, freym modeli, tayanch konspekt, semantik tarmoq, intellekt karta). |
| **5.** | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>•ma’ruza va amaliy mashg‘ulorlarda muntazam qatnashish: munozaralar va o‘quv konferensiyasida ishtirok etish; tayanch konspektlar tuzish;<br>•joriy va oraliq nazorat topshiriqlarini bajarish;<br>•mustaqil ish topshiriqlarini bajarish;<br>•yakuniy nazorat topshirish**.** |
| **6.** | **VIII. Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.<br>2. Ҳасанбоев Ж., Ҳасанбоева О., Ҳомидов Ҳ. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1997.<br>3. Сафо Очил., Ҳошимов К. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1999.<br>4. Ҳошимов К., Сафо Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: |

| | |
|---|---|
| | Ўқитувчи, 2010.<br>**Qo‘shimcha adabiyotlar:**<br>5. Джуринский А.Н. Педагогика: история педагогических идей. – М.: Педагогическое общество России, 2000.<br>6. Долимов У. Миллий уйғониш педагогикаси. – Т.: НОШИР, 2012.<br>7. Хайруллаев М. Маънавият юлдузлари. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2001.<br>8. Хасанбоев Ж, Тўракулов Х., Хайдаров М., Ҳасанбоева О. Педагогика фанидан изоҳли луғат. – Т.: Фан ва технология, 2008.<br>9. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti.. – T., “Sano-standart” nashriyoti, 2017.<br>10. Әлеуов Ө. Қарақалпақстанда тәлим-тәрбиялық ойлардың қәлиплесиуи хәм рауажлануы. – Нөкис: Билим,1993.<br>**Axborot manbalari**<br>1. www.tdpu.uz<br>2. www.pedagog.uz<br>3. www.edu.uz<br>4. www.ziyo.edu.uz<br>5. www.gov.uz<br>6. www.ziyonet.uz<br>7. www.istedod.uz<br>8. www.cer.uz<br>9. tdpu-INTRANET.Ped |
| **7.** | Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2023-yil “___” ______dagi “___”-son Qarori bilan tasdiqlangan. |
| **8.** | **Fan/modul uchun mas’ullar va dastur mualliflari:**<br>Xodjayev Begzod Xudoyberdievich – pedagogika fanlari doktori, professor.<br>Kaldibekova Anargul Sotbarovna – pedagogika fanlari nomzodi, professor.<br>Isayev Ilya Fyodorovich – Rossiya Federatsiyasi Belgorod milliy tadqiqotlar universiteti Belgorod pedagogika instituti “Pedagogika” kafedrasi professori, p.f.d.<br>Yutta Stadop – Germaniya Bonn pedagogika universiteti, “Umumiy didaktika va maktab pedagogikasi” kafedrasi professori, pedagogika fanlari doktori. |
| **9.** | **Taqrizchilar:**<br>Bozorova Muslima Qodirovna – TerDU “Pedagogika ijtimoiy ish” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.<br>Tuychiyeva Inoyatxon Ibragimovna – FarDU “Pedagogika” kafedrasi mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) |